



BOLALAR TA'LIM-TARBIYASIDA MADANIY VA MILLIY QADRIYATLARNI SAQLASHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Qo'qon davlat universiteti
v.b. dotsenti **D.Kadirova**
Abdug'aniyeva Zulfiya talaba

Annotatsiya: Shiddatli globallashuv va madaniyatsizlashuv xavfi kuchaygan davrda yosh avlodning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni tahlil qilinadi. Muallif milliy o'zlikni anglash jarayonida yuzaga kelayotgan tizimli pedagogik to'siqlarni, oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi uzviylik muammolarini hamda etnopedagogik merosni zamonaviy ta'limga integratsiya qilishning dolzarb masalalarini yoritadi

Kalit so'zlar: Milliy qadriyatlar, etnopedagogika, ma'naviy immunitet, tarbiya metodikasi, milliy o'zlik, oila instituti, andisha, madaniy meros, uzviylik, komil inson g'oyasi.

Аннотация: В данной статье анализируется роль национальных ценностей в формировании духовно-нравственного облика подрастающего поколения в условиях стремительной глобализации и усиливающихся рисков культурной деградации. Автор освещает системные педагогические барьеры, возникающие в процессе осознания национальной идентичности, проблемы преемственности между семьей и образовательными учреждениями, а также актуальные вопросы интеграции этнопедагогического наследия в современную систему образования.

Ключевые слова: Национальные ценности, этнопедагогика, духовный иммунитет, методика воспитания, национальная идентичность, институт семьи, андиша (этикет), культурное наследие, преемственность, идея гармонично развитой личности.

Abstract: This article analyzes the role of national values in shaping the spiritual and moral character of the younger generation in an era of rapid globalization and increasing risks of cultural erosion. The author highlights systemic pedagogical barriers encountered in the process of national identity formation, issues of continuity between the family and educational institutions, and the pressing matters of integrating ethnopedagogical heritage into modern education.

Keywords: National values, ethnopedagogics, spiritual immunity, upbringing methodology, national identity, family institution, andisha (modesty/etiquette), cultural heritage, continuity, the ideal of a well-rounded person.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi — texnologik yutuqlar bilan bir qatorda, milliy madaniyatlar va qadriyatlar tizimining o'ziga xos inqirozi hamda "eroziyasi" (yemirilishi) xavfini ham keltirib chiqardi. Ayniqsa, dunyoqarashi endigina

shakllanayotgan bolalar uchun tashqi axborot oqimi va unifikatsiyalashgan (bir xillashtirilgan) global madaniyatning ta’siri nihoyatda kuchli bo’lmoqda. Bolalar ta’lim-tarbiyasida madaniy va milliy qadriyatlarni saqlash muammosi shunchaki o’tmishni qo‘msash emas, balki millatning kelajakdagi intellektual, ruhiy va ma’naviy xavfsizligini ta’minlash demakdir. Milliy qadriyatlar kishilar tarixiy birligini ta’minlaydigan etnik makonda shakllanadi va turli-tuman shakllarda namoyon bo’ladi. Kishilarning ongi va faoliyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Odamlarning kundalik turmush tarzida, ularning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarida, manfaatlarida, qiziqishlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, milliy qadriyatlar bir joyda qotib qolmaydi, tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘zgarib, takomillashib boradi. Yangicha mazmun va shaklga kiradi.

Pedagogik nuqtai nazardan, milliy qadriyatlar bolaning ijtimoiy xulq-atvori, tili, kattalarga hurmat, oilaviy sadoqat va vatanparvarlik hissini belgilovchi fundamental poydevordir. Biroq, bugungi ta’lim va tarbiya tizimida ushbu poydevorni mustahkamlashda bir qator murakkab, ko‘p qirrali muammolar ko‘zga tashlanmoqda.

Eng avvalo, an’anaviy tarbiya usullari va zamonaviy bolalar psixologiyasi o‘rtasidagi nomutanosiblik asosiy to‘siq sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xalq pedagogikasi yoki etnopedagogika — bu ming yillar davomida sayqallangan, tajribadan o‘tgan tarbiya maktabidir. Bizning boy merosimiz bo‘lgan "andisha", "sharmu hayo", "or-nomus" kabi tushunchalar bugun darsliklarda ko‘p hollarda faqat nazariy bilim yoki tarixiy fakt sifatida berilmoqda. Bola uchun milliy qahramonlar yoki urf-odatlar uning bugungi kundalik hayoti bilan bog‘liq bo‘lmagan "muzey ashyosi"dek tuyulmoqda. Bu esa pedagoglar oldiga qadriyatlarni shunchaki yodlatish emas, balki ularni zamonaviy hayot tarzi bilan uyg‘unlashtirish, bolaning qiziqishlari doirasiga olib kirish vazifasini qo‘yadi. Qadriyat qachonki bolaning ichki ehtiyojiga va shaxsiy e’tiqodiga aylansa, u shuningdagina xulq-atvorda o‘z aksini topadi.

Ikkinchi jiddiy masala — oila institutining tarbiyaviy funksiyasi susayib borayotganidir. An’anaviy o‘zbek oilasida milliy qadriyatlar bobo-buvilar o‘giti, kechki oilaviy suhbatlar va birgalikdagi mehnat jarayonida tabiiy ravishda avlodlardan avlodga o‘tgan. Bugun esa ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, ota-onalarning haddan tashqari bandligi va oilaviy muloqotning kamayishi natijasida ushbu “jonli zanjir” uzilmoqda. Bolaning ma’naviy dunyosida yuzaga kelayotgan bo‘shliqni esa milliy ruhga begona bo‘lgan, ko‘pincha iste’molchilik madaniyatini targ‘ib qiluvchi tashqi g‘oyalar egallamoqda. Maktabgacha ta’lim qanchalik mukammal bo‘lmasin, agar oiladagi ma’naviy muhit unga mos kelmasa, bolaning tarbiyasida “ikki yoqlamalik” va ma’naviy beqarorlik yuzaga keladi. Shu sababli, bugun "oil pedagogikasi"ni qayta tiklash va ota-onalarning ma’naviy mas’uliyatini oshirish davlat darajasidagi dolzarb masaladir.

Uchinchi muhim jihat — ona tilining qadriyatlar tashuvchisi sifatidagi o‘rni bilan bog‘liq. Til nafaqat aloqa vositasi, balki millatning ruhi va madaniy kodi hisoblanadi. Bolaning o‘z ona tilini mukammal bilmasligi, uning badiiy nafosatini va maqol-matallarining mag‘zini chaqmasligi uni o‘z xalqining madaniy ildizlaridan uzib qo‘yadi. Bugun ta’lim tili o‘zbek tili bo‘lmagan yoki o‘z tiliga e’tibor kam bo‘lgan muhitda o‘sayotgan bolalarda milliy o‘zlikni anglash darajasi pasayib borayotgani kuzatiladi. Pedagogika fani oldida turgan vazifa — ko‘p tillilikni qo‘llagan holda, ona tilining tarbiyaviy quvvatini saqlab qolish va u orqali milliy dunyoqarashni shakllantirishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiy shakllanish davri juda muhim bo‘lib, bu davrda qabul qilingan qadriyatlar va ko‘nikmalar umrbod saqlanib qoladi. Shu nuqtayi nazardan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, bolaning o‘zini tutishi, ijtimoiy va hissiy intellektini rivojlantirish, jamiyatda mas’uliyatli shaxs bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, inson kamolotida mikromuhit – oila sharoiti ham katta ta’sir kuchiga ega. Chunki bola ko‘z ochib ota-onasini, qarindosh-urug‘ini ko‘radi. Uning intensiv-jismoniy va psixologik rivojlanadigan davri oila ta’sirida shakllanadi. Xalqimizda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan naql bekorga aytilmagan. Oilaning hayot tarzi, undagi bola tarbiyasiga ijobiy ta’sir etadigan tarbiyaviy muhit uning kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada ilm olishning qadri, bilimli va donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo‘stlik, xushxulqlik, mardlik, jasurlikni targ‘ib etuvchi, o‘z manfaatini ko‘zlagan molparast, baxil, ochko‘z, do‘sti va xalqiga xiyonat kabi xislatlar haqida fikr yuritilishi ta’lim-tarbiyaga katta ta’sir etadi. Chunki oila muhitida bolalarni ilm olishga undash, uning foydalari, ilm ahlini hurmat etish to‘g‘risidagi fikrlar farzand barkamolligining asosini tashkil etadi. Ma’lumki, bilimli, ma’rifatli bo‘lish kishining kibr-havodan uzoqroq turishini ta’minlaydi, o‘gitlarda insonning kibr-havodan uzoq bo‘lishi atrofdagi kishilar bilan ijobiy munosabatni o‘rnata olishi uchun zamin hozirlaydi. Ilm sari intilish qutlug‘, ezgu ish sanaladi. Demak, har bir kishi ilm o‘rganish sari intilishi, o‘zlashtirilgan bilimlarga amal qilishi, kibr-havodan voz kechishi zarurdir. Ilm o‘rganish yo‘lida aziyat chekkan, mashaqqat tortgan kishigina uni to‘laqonli o‘zlashtira olishi, kasb-hunar sirlarini mukammal egallashi mumkin. Oilada bolalarni milliy qadriyatlar vositasida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning xususiyatlaridan yana biri bu aqlni rivojlantirishdir. Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash xususiyatlaridan yana biri xushxulqlikdir. Bilim va hunar egasi bo‘lish, ezgulik, yaxshilik yo‘lida hamda umum manfaati uchun mehnat qilish xushxulq insonga xos fazilat hisoblanadi. Kishilar o‘rtasida juda totuvlik, o‘zaro ahillikning yuzaga kelishi yurtning farovon bo‘lishi, odamlarning to‘kin-sochin yashashining asosiy omilidir. Oilada bolalarni inson shaxsi va uning qadr-qimmatini ulug‘lashga o‘rgatish, mehmondo‘stlik, do‘stlik, o‘zaro hamkorlik, mehnatga muhabbat, ilm olish va kasb-hunar egallashga nisbatan ishtiyoq va ehtiyoj, vatanparvarlik va qon- qardoshlik tuyg‘usiga ega bo‘lish, tejamkorlikning ahamiyati va isrofgarchilikning oldini olish, adolat va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning oqibatlari, axloq- odob qoidalari, sihat-salomatlikni saqlashga oid o‘gitlar haqida ma’lumotlar berish insonni yoshlikda aniq bir maqsadga intilishga tinimsiz harakat qilish, voyaga yetganida uning rohatini, mehnati natijasini ko‘rish tushunchalarini shakllantiradi. Ko‘rinib turibdiki, oilaning ta’lim-tarbiya borasidagi donishmandligi bola kamolotining asosini tashkil etadi. Shu xususiyati bilan milliy qadriyatlar millatning o‘ziga xos qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lovchi xalqa hisoblanadi. Eng asosiysi milliy qadriyatlar, umummilliy qadriyatlar bilan o‘zaro aloqadorlikda, dialektik birlikda rivojlanadi. Bir millat uchun ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlar keyinchalik umummilliy qadriyatlarga ham aylanishi mumkin. Masalan, milliy qadriyatimiz hisoblangan Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi kashfiyotlari, Beruniy yoki Al- Xorazmiyning matematika sohasidagi kashfiyoti, imom Buxoriyning islom olamining rivojiga qo‘shgan hissasi, Ulug‘bekning astronomiya faniga, Amir Temurning bunyod qilgan tarixiy obidalari, Boburning Hind diyorida mamlakatni idora qilish,

obodonchilik ishlari, Alisher Navoiyning she'riyat mulkiga qo'shgan hissasi kabilar bugungi kunda umuminsoniy qadriyat hisoblanadi. Chunki ushbu qadriyatlardan butun dunyo mamlakatlari foydalanadilar hamda barcha fanlar taraqqiyoti uchun qadrlı, ahamiyatli hisoblanadi.

Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlar muvozanatini saqlash ham o'ziga xos mahorat talab qiladi. Biz bolani millatchilik ruhida emas, balki o'z milliy g'ururiga ega bo'lgan va shu bilan birga dunyo hamjamiyatiga ochiq, bag'rikeng shaxs sifatida tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun "Komil inson" g'oyasini zamonaviylashtirish, milliy qahramonlar timsolini bolalar uchun jozibador va taqlid qilsa bo'ladigan darajada jonlantirish zarur. Masalan, Alpomish mardligini, Navoiy odobini yoki Beruniy ilmiy jasoratini bugungi kun muammolari bilan bog'lab tushuntirish — pedagogik san'at hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, bolalar tarbiyasida madaniy va milliy qadriyatlarni saqlash — bu dinamik jarayon bo'lib, u faqat o'tmishni himoya qilishni emas, balki asriy qadriyatlarni zamonaviy dunyoqarash bilan mohirona uyg'unlashtirishni talab etadi. Pedagogik muammolarning yechimi ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish, oilaviy tarbiya an'analarini tiklash va bolaning qalbida kuchli "ma'naviy immunitet"ni shakllantirish bilan bog'liqdir. Faqatgina o'z milliy ildizlariga tayangan, o'z tarixini va ajdodlari merosini qalb amriga aylantirgan avlodgina global dunyoda raqobatbardosh, barqaror va haqiqiy insoniy fazilatlarga ega shaxs bo'lib yetishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2024). *Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini yangi bosqichga ko'tarish va milliy g'oya targ'iboti*. Toshkent: "O'zbekiston".
2. Hoshimov, K., & Nishonova, S. (2025). *O'zbek pedagogikasi tarixi va milliy qadriyatlar uyg'unligi*. Toshkent: "O'qituvchi".
3. Abdullayeva, Sh. A. (2024). *Etnopedagogika: Xalq tarbiyasi durdonalari va zamonaviy ta'lim metodikasi*. Monografiya. Toshkent: "Akademnashr".
4. Umarova, M. S. (2025). *Raqamli avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarni saqlashning pedagogik muammolari*. Toshkent: "Fan".
5. UNESCO. (2023). *Global Education Monitoring Report: The Role of National Culture in Education Systems*. Paris: UNESCO Publishing.
6. Ibrohimov, N. (2026). *Yangi O'zbekistonda ma'naviy yuksalish va milliy o'zlikni anglashning falsafiy asoslari*. "Tafakkur" jurnali, 1-son.